

.....

ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIYLIK

Nuriniso Umarova

*Alfraganus universiteti kafedrası katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqolada Abdulla Oripov she'riyatining falsafiy-estetik xususiyatlari, unda ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy masalalarning badiiy-falsafiy talqini tahlil etilgan. Shoirning "Shoirning tug'ilishi" to'plamidagi she'rlar misolida inson, jamiyat, vijdon, erkinlik, Vatan, xalq donishmandligi va hayotiy haqiqat kabi umuminsoniy qadriyatlarning poetik ifodasi yoritilgan. Shuningdek, shoir ijodida yashirin ma'no qatlamlari, ramziy obrazlar va falsafiy mushohadalarning uyg'unligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy lirika, poetik tafakkur, badiiy-falsafiy mushohada, ramziy obraz, xalq donishmandligi, ma'naviyat, Vatan, inson, jamiyat.

Abdulla Oripovning falsafiy ruhdagi she'rlari o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Ushbu asarlarda shoir o'z davrining dolzarb ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy, muammolarini dadil, oshkora yoritadi. Uning poetik tafakkuri real voqelikni bevosita tasvirlash bilan cheklanmay, uni badiiy-falsafiy umumlashmalar darajasiga ko'taradi. Abdulla Oripov she'riyati o'z qa'riga qat-qat ma'no-mazmunlar yashirganki, uni ajib his-tuyg'ularsiz, chuqur ruhiy kechinmalarsiz, estetik ta'sirsiz va badiiy-falsafiy mushohadalarsiz, emotsional munosabatlarsiz mutolaa qilishning imkoni yo'q, har bir misrada olam-olam ma'nolar, ramziy obrazlar hamda insoniyat va jamiyat taqdiri, vijdon, erkinlik kabi umuminsoniy masalalarga murojaat mujassamdir. Shu bois uning falsafiy lirikasida yashirin ma'no qatlamlari, badiiy-falsafiy konsepsiyalar uyg'unlashib, o'quvchini fikrlashga, hodisalar mohiyatiga chuqurroq nazar tashlashga undaydi. She'rxon she'rni birinchi o'qiganda bir ma'noni, ikkinchi safar o'qiganda esa boshqa ma'noni uqadi. Qaysi fikrni, ma'no uqish va anglash kitobxon saviyasi, dunyoqarashi, bilim darajasiga bog'liq, bundan tashqari o'sha paytdagi ruhiy holati va kayfiyatiga ham bog'liq. Ijodkorning "Shoirning tug'ilishi" to'plamidan joy olgan she'rlarini namuna sifatida keltirish mumkin.

Maydalab yoqqan havoning Oxirida qori bor.

Men ko'ngil bergan parining Yonida dildori bor.

Maydalab yoqqan havolar Yog'masa bo'lmasmidi?

Dildori bor yorlar Boqmasa bo'lmasmidi?[1;250]

Abdulla Oripov she'riyatidagi falsafiylik xalq donishmandligini, yurtdoshlarning fikri va dunyoqarashini, har bir davr uchun muhim bo'lgan masalalarni nazmiy bitiklar qa'riga nafislik bilan singdira olish, ziyraklik, zakiylik va bu orqali eldoshlarni ogohlikka da'vat etish bosh maqsad hisoblanadi. Uning she'riyati uslubida faqat o'z avlodining emas, ming-ming yillar ilgari yashab o'tgan ajdodlarning, ota-bobolarning hayot tajribasi, donologi, hikmatlari aks etadi.

Bir vaqtlar tunlarni Yoritgan chiroy –

Boshi uzra uvladi Go'zal degan oy.

Bino qo'ydi o'ziga, Dedi: “ Go'zalman!”

O'ynab qolay 5-10 yil Ko'p menga jazman.

El oldida chiqazdi Tannoz degan nom.

Uzoqlashdi oshiqlar, Yolg'iz u badnom... [1; 300]

Shoirning mazkur she'rida bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan muammo, ya'ni qo'shtirnoq ichidagi toifalar haqida falsafiy mushohadalarini bir g'oya atrofiga jamlab donolik bilan aks ettirgan. Bu she'r orqali ijodkor hayotning achchiq haqiqatni ro'y-rost, boricha tasvirlaydi. Xalq chuqur, falsafiy, purma'no gapirish hadisini olgan. Xalqning tafakkur tarzi, hayotiy tajribalari, urf-odatlar va o'sha xalqqagina xos va mos bo'lgan, asrlar davomida shu elat bilan yashab, takomil topayotgan qadriyatlari adib she'rlarining asosiy mavzusi hisoblanganligini kuzatish mumkin:

Arslon qaytmas emish izidan, Jasoratda berar emish jon.

Yigit qaytmas emish so'zidan, Mardga iqrar bo'lar emish shon.

Ona yurtim! Nurli ko'ksingdan Iqbol sutin emar ekanman,

Mehnat, ijod -sadoqat-qasam! Baxt shu: shon-la quvnar ekanman![1;330].

Abdulla Oripov o'zining abadiylikka nomini muhirlagan asarlari bilan Abdulla Oripovgagina xos bo'lgan uslubni va falsafani kelajak avlod uchun meros qilib qoldirdi. Jumladan, “Shoirning tug'ilishi” to'plamidan joy olgan she'rlar ham jamiyat, davr,

insoniyat uchun dolzarb bo'lgan mavzularni qalamga olgan. Garchand ushbu to'plamdagi she'rlar asosan o'smirlik chog'larida, talabalik davrlarida yozilgan bo'lsa-da, ijodkor davrning muammolariga hayotiy tajribasi ulkan donishmand sifatida, inson deb atalmish hilqatning nozik, lekin sirli va chigal ruhiy dunyosini teran anglagan bir ruhshunos, faylasuf sifatida sinchkovlik bilan o'rganib, nazmiy bitiklar bag'riga jo ayladi. Umuman olganda, Abdulla Oripov she'riyati o'zbek she'riyatida inqilobiy hodisa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oripov A. Shoirning tug'ilishi. –Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. Shahlo, B. Romanchilikda evrilishlar||“Yoshlik” junali, 2009.
3. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
4. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGACHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SO'ZLAR JILVASI. «ACTA NUUZ», 1(1.7), 310-312.
5. QIZI, T. M. A. The Compatibility of Ogahis Literary Translation and the Originality of Jamis Artistic Creation. *JournalNX*, 6(12), 223-226.
6. Ibragimova, D. I. (2025). FACT AND INTERPRETATION IN THE REPRESENTATION OF HISTORICAL FIGURES. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 293-296.
7. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные вести*, (10), 46-50.